

**INGLIZ TILI FANIDAN MAKTAB DARSLIKLARIDA A2 BOSQICH UCHUN BERILGAN
GRAMMATIK MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TAHLILI**

M.B. Norqulova

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Ingliz tili grammatikasining asossiy fundamental qismi umumta'lim maktablarida A2 bosqichda ya'ni 7-9 sinflarda o'tiladi. Bu bosqichda o'quvchilarda faoliytni oshirish, tilni mukammal o'rgatish, o'qituvchilardan metodik usul va vositalaridan o'z vaqtida oqilona foydalanishlarni tashkil etish samarali natijalarga erishishning optimal yo'l hisoblanadi. Grammatika bu tilning skeleti, u huddiki poyezd yo'l kabi. Agar o'quvchi grammatik kompetensiyaga ega bo'lsa, u gaplarni to'g'ri tuza oladi, fikrini ravon yetkaza oladi, chet tilida munosabatga kirishganida og'zaki nutqda ikkilanishsiz chiroyli suhbat qura oladi. Yetarli darajada so'z bazasiga ega bo'lish va grammatik qonun-qoidalardan xabardorlik so'zlovchiga o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, u ko'tarinki ruhda gapiradi.

Ingliz tili fanidan mакtabda hozirgi kunda o'tiladigan yangi darslik "Prepare"da 7-9 sinflar uchun har bir unit: vocabulary, listening, grammar, pronunciation, writing, reading, speaking kabi bo'limlarga bo'lingan. Bu o'quvchilarning til ko'nikmalarini alohida e'tibor bilan rivojlantirishga samarali natija beradi. Darslik: Teacher's book, Student's book, workbook va audio/video multimedia yozuvlardan tashkil topgan komplekt hisoblanadi. Mashq va topshiriqlar unit mavzusiga aloqador matn va gaplardan tuzilgan bo'lib qiziqarli rasmlar bilan bezatilgan. Mashq ta topshiriqlar kim tomonidan bajarilishiga ko'ra 4 xil bo'ladi: individual, 2 kishi, guruh (3-4 kishi) yoki birgalikda bajariladi. Dars davomida bajariladigan aksariyat mashqlar darslikdan beriladi. Grammatik mavzu o'tilganidan so'ng, uni mustahkamlash uchun og'zaki va yozma tarzda mashq va topshiriqlar bajariladi. Og'zaki topshiriqlar :

1. Gap tuzish
2. Savollarga javob berish
3. Dialog tuzish
4. Guruh bilan topshiriqni bajarish
5. Individual matn tuzish

Ingliz tili mакtab darsligida grammatikaga aloqador quyidagi yozma topshiriq shartlari uchraydi:

1. Nuqtalar o'rnini to'ldirish
2. Gap, savol tuzish

3. Gapdagi xatoni topish
 4. Insho yozish
 5. Juft bo'lib ishlash
 6. Savollarga javob berish
 7. Gap ma'nosiga mos keluvchi so'zni tagiga chizish
 8. Jadvaldagi so'zlarni mosini gaplarga qo'yish
 9. Gaplarni so'roq yoki inkorga aylantirish
 10. Chalkashtirib berilgan so'zlardan gap tuzish
 11. So'zlardan zamonga moslab gap tuzish
 12. Gaplarni o'qing va unga mos berilgan grammatik qoidani toping
 13. Berilgan gaplarni tugallash
 14. Gaplar qaysi zamonda yozilganini toping (ko'p hollarda ikkita zamon keltirilgan bo'ladi)
 15. Qavsdagi so'zlarni gap mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri ifodalab yozish
 16. Javoblarga savol tuzish
 17. Ikki tomondagi gaplarni (so'zlarni, rasmlarni) bir-biriga moslashtirish (matching)
 18. Gaplarni ma'noni saqlagan holda boshqa so'zlar bilan qayta yozing
 19. Matndagi gaplardan jadvalni to'ldiring
 20. Jadvalni to'ldiring
- Biz tadqiqot ishimiz davomida aynan grammatikaga aloqador mashq va topshiqilarini 7-8-9 sınıf darsliklarida qanchalik tez-tez uchrashini tahlil qilib chiqdik va buni quyidagi jadvalda ifodaladik

Topshiqiriq turi	7-sinf darsligi "Prepare"	8-sinf darsligi "Prepare"	9-sinf darsligi "Prepare"	Soni	Foizda %
1	6	5	9	20	23.4
2	5	3	4	12	14.4
3	8	12	22	42	49.14
4			1	1	1.17
5	6	4	13	23	26.91
6	2		4	6	7.02
7	5	4	12	21	24.57
8	3		2	5	5.85
9				-	
10	4		4	8	9.36
11					
12	9	5	18	29	33.93
13		1	2	3	3.51
14				-	

15	4	5	17	26	30.42
16			1	1	1.17
17	5	4	3	12	14.04
18	1		1	2	2.34
19			1	1	1.17
20	5	7	3	15	17.55
Umumiy soni	63	50	117		

Har bir unitda grammatikaga oid 5-6, mashq berilgan, bir unit 3-4 darsda bo'lib o'tiladi. Individual bajariladigan 5-6 ta mashqdan so'ng, 1-2 ta juft bo'lib bajariladigan mashq keltirilgan.

Yangi usuldagagi mashq turiga "12. Gaplarni o'qing va unga mos berilgan grammatik qoidani toping" va "3. Gapdagi xatolarni topish" ni kiritishimiz mumkin. Bu turdagagi mashqlar "English matters", "Fly High" va "Teens English" ingliz tili darsliklarida uchramaydi. Bu kabi mashqlar bolalar uchun yangi bo'lganligi sababli bajarishda qiynalishadi, o'qituvchining yordamisiz bajara olishmaydi. Bajarishda Grammatik qonun-qoidalardan xabardorlik talab etiladi. "True/ False" kabi topshiriqlar ko'pincha grammatika qismida emas baliki reading qismida uchraydi.

Eng ko'p uchraydigan mashq turlariga: 12. Gaplarni o'qing va unga mos berilgan grammatik qoidani toping" "3. Gapdagi xatolarni topish" "15.Qavsdagi so'zlarni gap mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri ifodalab yozish""7. Gap ma'nosiga mos keluvchi so'zni tagiga chizish". Har bir Grammatik bo'limda shunday mashqlarni ko'ramiz.

Murakkab mashq turlariga: 12. "Gaplarni o'qing va unga mos berilgan grammatik qoidani toping" va "3. Gapdagi xatolarni topish" "18.

Gaplarni ma'noni saqlagan holda boshqa so'zlar bilan qayta yozing". O'qituvchining yordami bilan bunday turdagagi mashqlarni ham yechishga harakat qilishadi.

Xulosa qilib aytganda, darslik "Ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan 1-11 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan standart"ga asosan tuzilgan. Grammatik qismi qiziqarli, o'quvchilar yoshini va zamon talablarini inobatga olgan holda tuzilgan. Grammatik mavzu o'tilganidan so'ng mustaqil ravishda 'gap tuzish', 'kichik matn yozish' 'darak gaplarni so'roqqa va inkorga aylantirish' kabi topshiriqlar qo'shilsa yanada yaxshiroq bo'lar edi. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni erkin tarzda fikrlashga va kreativlikka undaydi.

ADABIYOTLAR:

1. "Ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan 1-11 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan standart"
2. Рогова Г.В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с.
3. "Prepare 8" Student's book 2022
4. "Prepare 7" Student's book 2022
5. "Prepare 8" Student's book 2022